



TRANSFORMATION PROCESSES IN THE RESETTLEMENT POLICY OF THE RUSSIAN EMPIRE IN THE LATE 19TH AND EARLY 20TH CENTURIES

Sh.V. Temirova

Associate Professor, Asia International University

PhD in History

Bukhara, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Turkestan, Russian Empire, colonialism, Central Asia, colonial policy, socio-political processes, population resettlement, Russian historiography, Soviet historiography, historiography of Uzbekistan, national oppression, imperial policy, colonial administration, Mustafa Chokay, Boymirza Hayit, Zeki Velidi Togan.

Received: 04.09.26

Accepted: 05.09.26

Published: 06.09.26

Abstract: This article examines the socio-political processes in Turkestan during the colonial period of the Russian Empire, with particular attention to the historical development and historiographical interpretation of Russia's conquest and colonial rule in Central Asia. The study analyzes the impact of the colonial regime on the social structure, economic conditions, national relations, and way of life of the indigenous population. Particular emphasis is placed on the policy of resettling the population from the Russian Empire to Turkestan in the second half of the nineteenth and early twentieth centuries, its colonial objectives, and its socio-political consequences. The article provides a comparative analysis of pre-revolutionary Russian, Soviet, post-independence Uzbek, and foreign historiography, identifying the ideological and methodological limitations that influenced interpretations of the colonial period. It also considers the role of political émigré scholars, including Mustafa Chokay, Boymirza Hayit, and Zeki Velidi Togan, in developing alternative interpretations of Russian imperial policy in Turkestan. The study argues for the necessity of an objective and systematic reassessment of the colonial

period based on contemporary methodological approaches, distinguishing between genuine social and economic transformations and the negative consequences of imperial domination. Such an approach contributes to a more comprehensive understanding of Turkestan's socio-political history and the complex legacy of Russian colonial rule.

XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA ROSSIYA IMPERIYASI TOMONIDAN AHOLINI KO'CHIRISH SIYOSATIDA TRANSFORMATSION JARAYONLAR

Sh.V.Temirova

Osiyo xalqaro universiteti dotsenti

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Buxoro, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Turkiston, Rossiya imperiyasi, mustamlakachilik, O'rta Osiyo, mustamlaka siyosati, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, aholini ko'chirish siyosati, rus tarixshunosligi, sovet tarixshunosligi, O'zbekiston tarixshunosligi, milliy zulm, imperiyaviy siyosat, mustamlaka ma'muriyati, Mustafo Cho'qay, Boymirza Hayit, Zaki Validiy To'g'on.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Rossiya imperiyasining Turkistonni bosib olishi va mustamlaka qilishi davrida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, mustamlakachilik siyosatining o'lka xalqlarining ijtimoiy tuzumi, iqtisodiy hayoti, milliy munosabatlari va turmush tarziga ko'rsatgan ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Rossiya imperiyasidan Turkistonga aholini ko'chirish siyosatining mustamlakachilik maqsadlari, uning tarixiy-geosiyosiy mazmuni hamda mahalliy aholining ijtimoiy-siyosiy hayotiga ta'siri alohida yoritilgan. Shuningdek, chor Rossiyasi, sovet, mustaqillik davri O'zbekiston va xorijiy tarixshunoslikda Turkiston tarixining talqin qilinishi qiyosiy jihatdan tahlil etilib, mavjud mafkuraviy va metodologik yondashuvlarning o'ziga xos xususiyatlari ochib beriladi. Maqolada Mustafo Cho'qay, Boymirza Hayit va Zaki Validiy To'g'on kabi siyosiy muhojir olimlarning Rossiya imperiyasining Turkistondagi siyosatini muqobil nuqtayi nazardan yoritishdagi hissasi ham ko'rib chiqiladi. Tadqiqot Turkistonning mustamlaka davridagi ijtimoiy-siyosiy tarixini zamonaviy metodologik yondashuvlar asosida xolis va tizimli ravishda qayta baholash zarurligini asoslaydi.

ТРАНСФОРМАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ В ПОЛИТИКЕ ПЕРЕСЕЛЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИЕЙ В КОНЦЕ XIX – НАЧАЛЕ XX ВЕКОВ

Ш.В. Темирова*Доцент Международного университета Азии**Доктор философии (PhD) по историческим наукам**Бухара, Узбекистан***О СТАТЬЕ**

Ключевые слова: Туркестан, Российская империя, колониализм, Средняя Азия, колониальная политика, общественно-политические процессы, политика переселения, российская историография, советская историография, историография Узбекистана, национальное угнетение, имперская политика, колониальная администрация, Мустафа Чокай, Баймирза Хаит, Заки Валиди Тоган.

Аннотация: В статье анализируются общественно-политические процессы, происходившие в Туркестане в период завоевания и колониального господства Российской империи, а также влияние колониальной политики на социальную структуру, экономическую жизнь, национальные отношения и быт коренного населения края. Особое внимание уделяется политике переселения населения из Российской империи в Туркестан во второй половине XIX – начале XX века, её колониальным целям, историко-геополитическому содержанию и последствиям для общественно-политической жизни местного населения. В работе проводится сравнительный анализ интерпретаций истории Туркестана в дореволюционной российской, советской, постсоветской узбекской и зарубежной историографии, раскрываются особенности идеологических и методологических подходов к изучению колониального периода. Рассматривается также вклад политических эмигрантов и исследователей, в частности Мустафы Чокая, Баймирзы Хаита и Заки Валиди Тогана, в формирование альтернативного взгляда на политику Российской империи в Туркестане. Обосновывается необходимость объективного и системного переосмысления общественно-политической истории Туркестана в колониальный период на основе современных методологических подходов, позволяющих разграничить реальные социально-экономические изменения и негативные последствия имперского господства.

Kirish. O'zbekistonning yangi tarixidagi tub yo'nalishlardan biri chor Rossiyasining O'rta Osiyoni bosib olishi va bu yerdagi hukmronligi bilan bog'liq murakkab tarixiy davrni xolisona yoritish hamda mustamlaka rejimini o'lka xalqlari ijtimoiy tuzumi va hayot tarziga

o'tkazgan ko'p taraflama ta'siri masalasini sistemali o'rganishdir. Bugungi kunda shu narsa ma'lumki, O'zbekiston mustaqillikka erishgunga qadar aynan ana shu davr biryoqlama talqin qilingan. Mustamlaka davrining rasmiy tarix fanida Rossiya davlatining "sivilizatorlik missiyasi" haqidagi konsepsiya hukmronlik qilib keldi, unga ko'ra o'lkamizning avval chor, so'ngra Sovet imperiyasi tarkibiga kiritilishi mustamlakachilikning barcha ziyon-zahmatlarini uzoq muddatga xizmat qiladigan natijalar bilan qoplaydi, deb talqin qilingan. Ana shunday kontseptual yondashuvlarning ta'siri hozirgi zamon chet el tarixshunosligining ba'zi qismida, jumladan, Rossiya tarixchiligida namoyon bo'lmoqda. Buning natijasida Turkistonning mustamlaka sharoitidagi ijtimoiy-siyosiy hayoti obyektiv manzarasini qayta tiklash ehtiyoji davrning dolzarb talabi sifatida namoyon bo'ladi. O'lkani mustamlakaga aylantirish bilan bog'liq holda yuz bergan va ichki qarama-qarshiliklarga ega o'zgarishlar jamiyning mazmun va mohiyatini yangi metodologik pozitsiyalardan turib ochib berish, obyektiv ravishda diqqatga sazovor o'zgarishlar bilan mustamlaka hukmronligining salbiy oqibatlari nisbatini aniq-ravshan belgilash muhimdir. Jahon tarixining yangi va eng yangi davrlarida mustamlakachi davlatlarda yaratilgan aksar tarixiy tadqiqotlarda mustamlaka siyosati imperiyaviy-markazchilik yondashuvi asosida bir yoqlama baholanib, "svilizatsiya olib keluvchilar tashrifi", "qoloq xalqlar rivojiga turtki beruvchi kuch" sifatida targ'ib qilingan. Biroq tarixning barcha bosqichlarida imperiyachilik harakati metropoliyaning manfaatlariga bo'ysundirilgan bo'lib, istilo qilingan o'lkalarni xomashyo bazasiga va sanoat mahsulotlari sotiladigan bozorga aylantirish, mumkin qadar ko'proq foyda olish, mahalliy aholini milliy kamsitish va insoniy huquqlaridan mahrum qilish printsiplari asosida kechgan. Dunyoning turli ilmiy tadqiqot markazlarida sobiq metropoliya davlatlari bo'lmish Buyuk Britaniya, Fransiya, Ispaniya, Portugaliya va Rossiya Imperiyasining xalqlarni ko'chirish siyosatining tarixiy shart-sharoitlari, uning zamonaviy oqibatlarini aniqlash borasida izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, Rossiya imperiyasining XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Turkistonda aholini o'lkaga mustamlakachilik maqsadlari asosida ko'chirish siyosatining tarixiy-geopolitik mazmunining aniq dalillar asosida ochib berish muhim ahamiyatga ega. Tarixshunoslik tahlili shuni ko'rsatadiki, o'rganilayotgan mavzuning ba'zi yo'nalishlari bo'yicha hozirga qadar ma'lum bir miqdorda adabiyotlar mavjuddir. Kontseptual-uslubiy yondashuvlar mazmunidan kelib chiqib, ularni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin: 1) O'rta Osiyoni chor hukumati tomonidan mustamlakaga aylantirish davriga oid nashrlar; 2) sovet davriga doir nashrlar; 3) O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin o'tkazilgan tadqiqotlar; 4) chet ellik mualliflarning asarlari. Birinchi guruhga xos tadqiqotlarning o'ziga xos tarafini chor rejimining siyosatini xaspo'shlab ko'rsatish tashkil etadi. Rossiya mustamlakachilik tarixshunosligini o'zida ifoda etgan bu asarlar chor Rossiyasining hududiy ekspansiyasi

mafkurasiga tayangan, ular asosan chor ma'muriyati buyurtmasiga ko'ra yozilgan hamda O'rta Osiyo mintaqasida hokimi mutlaqlik tuzumi o'rnatish bo'yicha ko'rilgan choralarning qonuniyligini asoslash uchun xizmat qilardi. Shunga qaramay, bu asarlarda tarixiy bilimlarning yuksalishiga xizmat qiluvchi va qisman chorizmning aholini ko'chirish siyosatini qonunchiligi va Turkiston iqtisodiy, madaniy-mayishiy hayotidagi transformatsion jarayonlarni aks ettiruvchi qimmatli faktik materiallar mavjud edi. Chorizm davrida yaratilgan tarixiy adabiyotlarning tavsifiga kirishar ekanmiz, shuni qayd etish kerakki, XIX asrning 60-80-yillarini qamrab olgan birinchi bosqichda aholini ko'chirish siyosati masalalariga bevosita bag'ishlangan ishlar mavjud emas edi. F.K.Girs komissiyasining, graf N.P.Ignatev, akad. A.F.Middendorfning maxsus komissiyasi, K.K. Palen komissiyasi va ko'plab boshqa yuqori martabali imperiya amaldorlari, shuningdek, Turkiston generalgubernatorlarining hisobotlarida bayon etilgan takliflarning mohiyati ham aynan shunda edi. Chor mustamlakasi davri tarixshunosligining ko'pgina nuqsonlarni sovet tarix fani ham o'ziga singdirib olgan edi. Bular jumlasiga so'nggi xulosalar va baholarni oldindan rasmiy doiralar fikriga moslash, tendentsiozlik, imperiyacha tafakkur an'analarini kiritish mumkin. Bu xususiyatlar sovet siyosiy tizimining tarixni haddan ortiq siyosiylashtirish, uni kommunistik ta'limot mafkura sxemalariga tiqishtirish, sinfiy-partiyaviy yondashuvlarni qabul qildirish kabi qat'iy mafkuraviy nazorat amaliyoti tufayli kuchayib bordi. Bu borada o'tgan asrning 20-yillarini qamrab oladigan dastlabki bosqich alohida ajralib turadi. Bu davrning o'ziga xos taraflari sovet tarixshunosligi fanining o'sha davrda endigina tug'ilib kelayotgani, markaziyatchi va bir partiyali ustanovkalar ijtimoiy-siyosiy tafakkurda hali ustunlikka erishmagani kabi xususiyatlar edi, shu sababli ma'lum bir darajada dunyoqarashlar plyuralizmi, shu jumladan, chorizmning aholini ko'chirish siyosati va uning oqibatlarini yoritish masalasida ham ko'rinadi[5]. Jumladan, S.Muraveyskiy, P.G.Galuzo va Ye.Fedorov tub joy aholining mustamlakachilarcha ezish masalalarini ko'rib chiqar ekanlar, o'lkani to'la mustamlakaga aylantirishning shakllaridan biri aholini ko'chirish siyosati ekanligini ko'rsatib o'tadilar. V.P.Voinin ko'chib kelganlar tarafidan mahalliy dehqonlar va ko'chmanchi aholining yerlari tortib olganini qisman tadqiq etdi. V.Lavrentev aholini ko'chirish harakatining Turkiston iqtisodiyoti "burjuacha tadriji"ga ta'sirining ba'zi qirralarini ochib berdi. Ammo, umuman olganda, ularning xulosalari oktyabr to'ntarishining "ob'ektiv" shartsharoitlarini asoslash, o'sha paytda shakllanayotgan proletar va milliy-ozodlik harakatining bolsheviklarning "sotsialistik tuzumni qaror toptirish uchun" olib borayotgan kurashi bilan "organik birligi" haqidagi kontseptsiyani hujjatlarga asosan tasdiqlashga qaratilgan edi. Turkistonni mustamlakaga aylantirish, tub joy aholiga nisbatan o'tkazilgan ijtimoiy-iqtisodiy va milliy zulm, Rossiyadan ommaviy ravishda aholini ko'chirib keltirishning og'ir oqibatlari T.Risqulov va

ayniqsa G.Safarovlarning ishlarida to'laroq ochib berilgan edi. Jumladan, G.Safarov mustamlaka ma'murlari va rus ko'chkinlariing tub joy aholiga nisbatan ulug'davlatchilik-shovinistik munosabatini tanqidiy baholadi, o'lkadagi milliy-ozodlik harakatining avtonom xarakterga ega ekanligini asosli ko'rsatib bergan edi. Biroq o'tgan asrning 30-yillaridan boshlab "tarix jabhasiga" nisbatan mafkuraviy hujum sezilarli darajada kuchaydi. "Aksillenin kontseptsiyalar"ga qarshi va va "mahalliy tarixshunoslikning g'oyaviy takomili uchun" kurashni avj oldirish uchun "juda katta zarurat mavjudligi" rasmiy doiralar tarafidan e'lon qilindi. Jumladan, G.Safarov "leninizmni trotskizm bilan chalkashtirib yuborish"ga intilgani uchun ayblandi. Tadqiqotchiga "Oktyabr inqilobi"ning qonuniyligini inkor qilganlik, "milliy-mustamlakalar masalasini proletariat diktaturasi to'g'risidagi umumiy masaladan ajratib qaraganlik" kabilar ayb qilib qo'yilgandi. 1934-yil 23-aprelda VKP(b) MQ O'rta Osiyo byurosi Markazning ko'rsatmasiga ko'ra O'rta Osiyo tarixshunosligidan Rossiyaning qurolli ekspansiyasi haqidagi qarashlarni chiqarib tashlash va bundan keyin bunga yo'l qo'ymaslik, shuningdek Turkiston va va Cho'l o'lkasidagi rus hukmronligini, imperiyaning Buxoro va Xiva xonligi bilan aloqalarini har qanday tarzda salbiy baholashning oldini olish haqida maxsus qaror qabul qildi. 30-yillarning ikkinchi yarmida qat'iy mafkuraviy qoliplarni joriy etish yo'li yanada kuchaydi. Stalin davridagi repressiv siyosiy muhitning qaror topishi natijasida tarix fani o'zining azaliy vazifalaridan uzoqlashtirildi, tarixiy tafakkur kuchsizlandi. Qat'iy mafkuraviy nazorat sharoitida ilmiy tadqiqot imkoniyatlarining keskin cheklanishi hamda arxiv va boshqa axborot manbalaridan foydalanishning maxfiy ruxsat tartibi ilmiy tadqiqotlarning nafaqat sifatida, balki miqdorida ham o'z aksini topdi. Aslida tarix fanida jiddiy metodologik inqiroz yuz berdi. Xorijiy tarixshunoslikda ushbu yo'nalishning shakllanishi va rivojlanishida O'rta Osiyo hamda Rossiyaning «musulmon» mintaqalaridan ketgan siyosiy muhojirlarning hissasi katta bo'ldi. Mustafo Cho'qay o'g'li, Boymirza Hayit, Zaki Validiy To'g'on va boshqalar shular jumlasidandir[18]. Masalan, Frantsiyaga muhojir bo'lib ketgan Mustafo Cho'qay o'zining "Turkiston Sovet hukmronligi ostida" nomli kitobida Rossiya imperiyasi milliy siyosatining O'rta Osiyo xalqlariga «begona» ekanligi haqidagi konsepsiyani birinchilardan bo'lib ilgari surgan. Yuqoridagi kontseptual yo'nalishning rivojlantirilishi B.Hayitning qator monografiyalarida o'z tasdig'ini topdi. Jumladan, "Turkiston XX asrda" va 1971-yilda e'lon qilingan "Turkiston Rossiya va Xitoy orasida" sarlavhali asarlarida muallif O'rta Osiyoda chor davrida ham, sovet tuzumida ham milliy kamsitish siyosati o'tkazib kelingani haqidagi xulosaga keladi. Xorijiy tarixshunoslikning frantsuz, nemis, ingliz, Amerika, turk va boshqa maktablarida ham bu yo'nalishdagi e'lon qilingan ishlar salmog'i ortdi, ularda rus mustamlakachi hukmronligining Turkiston va umuman mintaqadagi ko'pgina aspektlari jiddiy tanqid ostiga

olindi[19]. Masalan, U.Kollraz va M.Fitsroy o'z ishlarida o'lkada rus tilida so'zlashuvchi aholini ko'paytirish amaliyotining chor Rossiyasining harbiy-siyosiy maqsadlariga bo'ysundirilganini alohida qayd etib o'tdilar. O'z navbatida R.Portel sovet hokimiyati mintaqaning tub joy aholisiga nisbatan chor mustamlakachilari ilgari o'tkazib kelgan siyosatni yangi shakllar va uslublar bilan amalga oshirmoqda, deb yozadi. S.Bekker talqiniga ko'ra, tub joy aholiga tegishli yerlarni tortib olish, uning milliy-ma'naviy hayotiga aralashish va rusotsentrizm siyosati yerli xalqlar tomonidan qarshilik ko'rsatilishiga sabab bo'lgan. E.Karre d'Enkos sovet hokimiyati davrida Turkiston bilan birga Buxoro va Xiva ham mustamlaka holda edi, deya ta'kidlaydi. O'zbekiston siyosiy mustaqillikka erishganidan so'ng mamlakatimiz tarix fanida sezilarli jonlanish yuz berganiga qaramay, aholini ko'chirish siyosatining eng muhim aspektlari, uning barcha murakkab namoyon bo'lish shakllari bilan birga hozirga qadar mustaqillik davri tarixshunosligining zamonaviy metodologik yondashuvlari asosida yetarli darajada o'rganilmagan. Muammoning shubhasiz katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega ekanligi, uning dolzarbligi, shuningdek, masalaning tarixiy jarayonlarga zamonaviy qarashlar nuqtai nazaridan ishlanmagani ushbu tadqiqot mavzusining tanlanishiga olib keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Романовский Д.И. Заметки по среднеазиатскому вопросу. - СПб., 1868; Терентьев М.А. История завоевания Средней Азии. - СПб., 1906.
2. Исаев А.А. Переселение в Русском народном хозяйстве. – СПб., 1891; Гейер И. Крестьянская колонизация Сыр-Дарьинской области. - Т.,1892; Григорьев В. Крестьянская колонизация. //Русская мысль. – 1893. - № 2. - С. 11-12 ва бошқ.
3. Кауфман А.А. К вопросу о русской колонизации Туркестанского края. - СПб., 1903; Гирс Ф.К. Отчет о состоянии Туркестанского края... С. 306-307.
4. Сафаров Г. Колониальная революция (Опыт Туркестана). - М., 1921.
5. См.: Троцкистско-колониаторская концепция истории российского господства в Средней Азии. // Революция в Средней Азии. Сборник 3. - Т., 1932; Гуревич А.О. О положении на историческом фронте Средней Азии. // Революция и культура в Средней Азии. - Т., 1934.
6. Житов К.Е., Непомнин В.Я. От колониального рабства к социализму. - Т., 1939; Бунаков Е.Е. Развитие капитализма в Узбекистане. - Т., 1946; Житов К.Е. Краткий очерк истории Узбекской ССР. – Т., 1947 и др.
7. Шарова П. Переселенческая политика царизма в Средней Азии в 1906-1916 гг. // Историкмарксист, №6, 1940

8. История Узбекской ССР. Т. I. Кн. 2. -Т., 1956; История Узбекской ССР. Т. II. - Т., 1968.
9. Рабочее и аграрное движение в Казахстане в 1907-1917 гг. - Алма-Ата, 1957.
- 10.G'afforov Sh. Tarix va taqdir: Rossiya imperiyasidan Turkistonga ko'chirilganlar (XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlari).-T.Fan. 2006.–224 b.
- 11.O'zbekistonning yangi tarixi. 1-kitob (Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida - Т., 2000.
- 12.Туркестон в начале XX века: к истории истоков национальной независимости. - Т.: Шарк, 2000.
- 13.Абдурахимова Н.А. Колониальная система власти в Туркестане (вторая половина XIX – начало XX вв). Автореф. дисс.... докт. ист. наук.- Т., 1994.